

**Erkatayeva Shohsanam Abduraxmonovna**

*Ohangaron tumani 1-son kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**Xolto'rayeva Fotima Mitxat qizi**

*Ohangaron tumani 1-son kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

*E-mail: [erkatayevashoxsanam@gmail.com](mailto:erkatayevashoxsanam@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxsiy kompyuterlar hamda priferik qurilmalar haqida so'z yuritiladi. Shaxsiy kompyuterlarning asosiy va qo'shimcha qurilmalari ishlash funksiyasi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *kompyuter, local disk, preferik qurilma, tizimli dasturlar, tashqi qurilmalar, apparatli ta'minot.*

Birinchi shaxsiy kompyuter 1973-yilda Fransiyada Troung Ti tomonidan yaratilgan. Dastlab yaratilgan mazkur shaxsiy kompyuter elektron o'yinchoq sifatida qabul qilindi. Bu kompyuter 1977-yilda amerikalik Stiv Jobs boshchiligidagi "Apple Computer" firmasi tomonidan mukammallashtirilib, dasturlarning katta majmuini tatbiq etib, ommaviy ravishda chiqarila boshladi. Shundan beri kompyuter hayotimizga mustahkam joylashib, axborotni qayta ishlashning eng zamonaviy vositasiga aylandi.

Kompyuter, deganda turli hajmdagi, har xil ko'rinishdagi axborotlarni tezlik bilan ishlab berishni ta'minlovchi universal avtomatik qurilmani tushunish mumkin.

Hozirda xilma-xil zamonaviy kompyuterlar insonga xolis hizmat qilmoqda. Ularning tashqi ko'rinishi ham turlicha. Lekin ularni tashkil etuvchi qurilmalar, bilan yaqindan tanishsak, turli turkumdagi mashinalardagi qurilmalarda o'xshashlik borligini ko'ramiz. Har qanday kompyuter apparatli ta'minoti, asosiy va qo'shimcha qurilmalardan tashkil topgan. Asosiy qurilmalar kompyuter ishlashini ta'minlasa, qo'shimcha qurilmalar kompyuter bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Hozirgi kunda kompyuter olami juda katta tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga juda ko'p sabablar bor. Eng asosiy sabablardan biri bu - kompyuter orqali inson tomonidan bajariladigan ishlarning deyarli barchasi bajarilmoqda. Nafaqat bajarilmoqda, balki osonlik va tez bajarilmoqda. Undan tashqari maromiga yetkazilib, ishlar bitkazilmoqda. Bu ishlarni bajarishda, kompyuter bir o'zi emas, balki kompyuterga ulanadigan preferik qurilmalar yordamida amalga oshirmoqda.

Preferik qurilma bu – kompyuterga tashqi tomondan ulanib, uning imkoniyatlarini kengaytiradigan qurilmalarga aytiladi. Bu qurilmalar qo'shimcha qurilmalar ham deyiladi, ularsiz ham kompyuter o'zining asosiy ishlarini amalga oshiraveradi. Periferik qurilmalar faqatgina qo'shimcha ishlarni amalga oshiradi.

Demak, bu qurilmalarga nimalar kiradi? Bu qurilmalar juda ko'p, shuning uchun nimalar kirmasligini bilib olsak, qolgan hamma narsalar kirishi oydinlashadi.

Priferik qurilmalar kompyuterga ma'lum bir portlar yoki simsiz ulanishi mumkin. Misol uchun, USB, LPT, COM portlar orqali yoki simsiz aloqa orqali, ya'ni wi-fi, Bluetooth va hokazolar orqali.



Kompyuter nimalardan tashkil topgan va nimalar bo'lmasa umuman ishlamaydi? Shu savolga javob beramiz. Kompyuter tizim blok, monitor va klaviaturadan tashkil topgan. Bu qurilmalarning birortasi bo'lmasa kompyuterni ishlatib bo'lmaydi. Ko'pchilik bu ro'yxatga sichqonchani ham kiritishadi, lekin u siz ham kompyuterni ishlatish mumkin. Tizim bloki ichidagi narsalar umumiy holda uning ichiga kirib ketadi. Qolgan barcha qurilmalar priferik qurilmalardir.

Priferik qurilmalarning soni ko'pligi uchun, ularni bir necha guruhlarga bo'lib o'rganiladi va bu guruhlar quyidagilar:

**Kiritish qurilmalari.** Bu qurilmalar biror narsalarni kompyuterga kiritish uchun ishlatiladi. Klaviaturani xam shu guruhga kiritish mumkin, lekin u priferik qurilma emas.

**Chiqarish qurilmalari.** Biror narsani kompyuterdan chiqarish uchun ishlatiladi.

**Saqlash qurilmalari.** Bu qurilmalar ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatiladi. Vinchester, kompyuter ichida joylashgani va asosiy qurilmasi bo'lgani uchun periferik qurilmaga kirmaydi.

**Tarmoq qurilmalari.** Bu qurilmalar tarmoq qurish uchun ishlatiladi. Tarmoq topologiyalariga qarab bu qurilmalar tanlanadi.

Priferik qurilma - kompyuterga ma'lumot kiritish yoki undan chiqarish imkonini beruvchi uskunadir.

Priferik qurilmalar tizimning ishlashi uchun ixtiyoriy bo'lishi va kompyuterdan uzilishi mumkin. Biroq, ko'pgina kompyuterlar periferik qurilmalar bilan ishlatiladi.

Baʼzida bitta priferik qurilma bir vaqtning oʻzida bir nechta turlarga tegishli. Masalan, kiritish-chiqarish qurilmasi, ovoz kartasi, tarmoq platasi, switch.

**Kompyuter qurilmalari uch turga boʻlinadi:**

- ichki (protessor, operativ xotira);
- tashqi (periferik);
- tashqi va ichki (interperiferik).

Priferik qurilmalarga yordamchi uskunalar, masalan, sichqoncha, klaviatura kiradi. Yordamchi uskunalar qandaydir tarzda kompyuterga ulanadi va u bilan birga ishlaydi. Ichki qurilmalar maʼlum bir arxitekturani amalga oshiradi, kompyuterning apparat platformasini tashkil qiladi. Tashqi qurilmalar kompyuterning arxitekturasiga bogʻliq emas, ular kompyuterning imkoniyatlarini kengaytiradi.

**ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Семенов А. В. и др. Под ред. В. И. Дракина Электронные вычислительные машины: Учеб. пособие для ПТУ. — М.: Высшая школа, 1991. — С. 288. — ISBN 5-06-000756-1
2. Под ред. Л. Н. Преснухина Том 1. Архитектура и проектирование микро-ЭВМ. Организация вычислительных процессов. // Микропроцессоры. В 3х книгах. Учебник для вузов. — М.: Высшая школа, 1986. — С. 495.
3. Avdeev V. A. Periferiynie ustroystva: interfeysi, sxemotexnika, programmirovaniye.
4. Myuller S. Modernizatsiya i remont PK, 19-e izd.
5. Laplante, Philip A. Dictionary of Computer Science, Engineering and Technology. — CRC Press, 2000. — С. 366. — ISBN 0-8493-2691-5 Tsitata: „device that is used to put information into or get information out of the computer“.
6. How to Add RAM and Peripheral Cards to a PC Arxivnaya kopiya ot 18-oktabrya 2014 na Wayback Machine // PCWorld.
7. <https://kompy.info/1-shaxsiy-kompyuterning-haqida-tushuncha.html>
8. [WWW.STUDENT.BIZ.UZ](http://WWW.STUDENT.BIZ.UZ)
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)